



ЎЎК 811.111.1:378.(575.1)

*Nilufar YULDASHOVA,*

*O'zbekiston jurnalsitika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti dotsenti, PhD*

*E-mail: yuldashova-n@mail.ru*

*O'zDJTU dotsenti, PhD I.Mo'ydinova taqrizi asosida*

### TEACHER IS AS MEDIATOR IN TBLT CLASSROOM

Abstract

This article reveals that in the process of teaching and learning a foreign language, the teacher is not merely a provider of knowledge but also acts as a bridge between the learners and the target language — that is, as a mediator. Rather than directly teaching the language, the teacher creates conditions that allow learners to acquire the language actively and independently, while guiding and supporting them throughout the process. The article also provides information about the principles that describe the behavior of an expert teacher, which should be taken into account to achieve the objectives set in language teaching.

**Keywords:** TBLT, task, motivator, organizer, interactional partner and supporter, negotiation of meaning, socio-emotional support.

### УЧИТЕЛЬ КАК ПОСРЕДНИК В КЛАССЕ TBLT

Аннотация

В данной статье раскрывается, что в процессе преподавания и изучения иностранного языка учитель выступает не просто как носитель или тот кто передаёт знания, но и как своеобразный мост между учащимися и изучаемым языком, то есть как посредник (mediator). Вместо прямого преподавания языка учитель создает условия для активного и самостоятельного усвоения языка учащимися, направляя и поддерживая их на протяжении всего процесса обучения. В статье также представлена информация о принципах, которые описывают поведение профессионального учителя и должны учитываться для достижения целей, поставленных в процессе преподавания языка.

**Ключевые слова:** TBLT, задание, мотиватор, организатор, собеседник и поддерживающий партнер, переговоры о значении, социально-эмоциональная поддержка.

### VAZIFAGA ASOSLANGAN TIL O'QITISHDA O'QITUVCHI VOSITACHI ROLIDA

Annotatsiya

Ushbu maqolada xorijiy tilni o'qitish va o'rganish jarayonida o'qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki o'quvchilar va o'rganilayotgan til o'rtasida ko'prik vazifasini, ya'ni vositachilik vazifasini bajarishi ochib berilgan. O'qituvchi o'quvchilarga tilni bevosita o'rgatishdan ko'ra, tilni o'z'lari faol o'zlashtirishlari uchun sharoit yaratadi, jarayonni yo'naltiradi va qo'llab-quvvatlaydi. Maqolada o'qituvchi til o'qitishda qo'yilgan maqsadlarga erishishi uchun inobatga olishi kerak bo'lgan mutaxassis o'qituvchi xulqini ifodalovchi tamoyillar ham keltirib o'tilingan.

**Kalit so'zlar:** TBLT, vazifa, motivator, tashkilotchi, suhbatdosh sherik va qo'llab-quvvatlovchi, ma'no muzokarasi, ijtimoiy-emotsional yordam.

**Kirish.** Vazifalar va ikkinchi tilni o'rganish bo'yicha tadqiqot adabiyotlarida ham, vazifalarga asoslangan tillarni o'qitish bo'yicha pedagogik adabiyotlarda ham (TBLT-Task Based Language Teaching) o'qituvchining til o'qitishdagi roliga juda kam e'tibor qaratilib kelindi. Xorijiy tilni ikkinchi til sifatida o'rganish (Second Language Acquisition), vazifalar va tilni o'rganish bo'yicha tadqiqotlar, birinchi navbatda, til vazifalarining murakkabligi, jalb qilingan ma'lumot almashish turi yoki ularni bajarish uchun zarur bo'gan vaqt, til o'rganuvchilarning ishlashi va rivojlanishi kabi ba'zi xususiyatlari o'rtasidagi munosabatlarni o'rnatishga qaratilgan.

Vazifaga asoslangan til o'rganish (TBLT) bo'yicha pedagogik yo'naltirilgan adabiyotlarda til o'rganuvchilar odatda vazifalarni bajarish orqali aniq til bilimlarini rivojlantiradigan va o'rganayotgan tilni mazmunli maqsadlar uchun tushunish va ishlab chiqarishda asta-sekin malakaga ega bo'ladigan faol ishtirokchilar sifatida tavsiflanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Van den Branden TBLTni an'anaviy, o'qituvchilar ustunlik qiladigan yondashuvlarga teskari bo'lgan, ya'ni tilni o'qitishda o'quvchiga yo'naltirilgan yondashuv deb ta'riflaydi [13]. Misol uchun, Ellis va Shintani "Ikkinchi tilni o'rganish tadqiqotlari orqali til pedagogikasini o'rganish" deb nomlangan

jurnalda vazifaga asoslangan til o'rganish yondashuviga o'quvchilar vazifalarni bajarish orqali ma'noga yo'naltirilgan muloqotga kirishib kommunikativ kompetensiyasini takomillashtirishga qaratilgan yondashuv deb ta'rif beradilar [5].

Shuningdek, ushbu olimlarning fikriga ko'ra vazifaga asoslangan til o'qitishning asosiy tamoyillaridan biri shundaki, til o'rganuvchilar nafaqat ma'lumotni tushunish va xabarni ishlab chiqish bilan shug'ullanishlari kerak, balki o'rganish sodir bo'lishi uchun ular grammatik shakllarga ham e'tibor qaratishlari lozim. Bularning barchasi shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar vazifalarni mustaqil ravishda bajarishlari kerak, o'qituvchi imkon qadar o'quvchilardan ko'proq ishlab chiqarishni (production) nazarda tutuvchi mashqlardan foydalanishi va til o'rganish deyarli tabiiy natija sifatida sodir bo'lishi muhim.

Hatti o'zining tahlillarida til o'rganishda ko'rsatmalarining ta'sirini e'tiborga olib, o'qituvchini ta'lim tizimida boshqariladigan o'zgaruvchanlikning asosiy manbai va ta'lim jarayonidagi asosiy o'yinchi deb hisoblaydi [6]. Shuningdek mukammalini (ya'ni o'quv dasturidagi asosiy fanlar bo'yicha yuqori darajadagi malakani rivojlantirayotgan o'quvchilar) va tenglikni (ya'ni, barcha o'quvchilar ijtimoiy, madaniy yoki

madaniy jihatdan qat'iy nazar yetarlicha yuqori malaka darajalarini rivojlantirishi) o'zida mujassam etadigan ta'lim tizimlarining asosiy xususiyatlarini tahlil qilish natijasida, McKinsey va Company o'qituvchini ta'lim samaradorligini oshirishning eng muhim omili sifatida ajratib ko'rsatdi. Ular shunday xulosaga keldilar: "Ta'lim tizimining sifati uni ta'minlab beruvchi o'qituvchining sifatidan oshib ketolmaydi, ya'ni ta'lim tizimi muvaffaqiyati o'qituvchiga bog'liq" [10].

Shubhasiz, barcha o'qituvchilar bir xil darajada samarali ta'lim bera olmaydi. Shu munosabat bilan, tajribali va yangi o'qituvchilardan mutaxassis o'qituvchilarni (ya'ni, talabalar bilan doimiy ravishda o'rtacha darajadan yuqori yutuqlarga erishadigan o'qituvchilarni) ajratib turadigan tadqiqotlar bizni yetarlicha ma'lumot bilan ta'minlab beradi. Mutaxassis o'qituvchilarning odatiy xatti-harakatlarini tavsiflovchi va keng empirik dalillarga asoslangan bir nechta qoliqlar (framework) mavjud [7].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu maqolada muhokama qilingan hozirgi tadqiqot oliy ta'lim muassasalarida vazifaga asoslangan dasturlarni samarali qo'llashda o'qituvchining vositachi sifatidagi rolini aniqlashga qaratilgan.

O'qituvchilar mutaxassis o'qituvchi xulqini ifodalovchi tamoyillarni pedagogik qarorlar va ular qabul qiladigan harakatlarga muntazam ravishda integratsiya qilish orqali ta'im sifatini kuchli ravishda oshirishlari mumkin. Buning aksariyati talaba nuqtai nazaridan bajarish (ya'ni vazifani bajarish bilan shug'ullanish) va o'rganish o'rtasida katta farq bo'ishi mumkinligi bilan bog'liq. Umuman olganda, "o'rganish" atamasi o'z bilimlari, ko'nikmalari, munosabatlari va malakalarida nisbatan davomli o'zgarishlarni o'rnatadigan odamlarni anglatadi [4]. Odamlar yangi narsalarni boshqa odamlarning yordamisiz mustaqil ravishda o'rganishga qodir bo'lishiga qaramay, empirik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mustaqil o'rganish uchun aniq chegaralar mavjud, ayniqsa murakkab ko'nikmalarni rivojlantirish (masalan, xorijiy tildagi kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish)[5]. O'rganish ko'pincha to'siqlarni bartaraf etish, xato yoki noto'g'ri tushunchalarni tuzatish, xatti-harakatlarni yaxshilash, yangi narsalarni yaratish va keng tarqalgan fikrlarni qayta ko'rib chiqishni o'z ichiga oladi. Buning uchun boshqa odamning (o'zaro) qo'llab-quvvatlashi ko'pincha foydali, samarali va hatto hal qiluvchi bo'ladi [7]. Ta'lim jarayonida qo'llab-quvvatlash tengdoshlardan kelib chiqishi mumkin, [9; 11] lekin ko'p hollarda yanada malakali kishining yordami zarur bo'ladi. Til o'rganishda o'qituvchi o'quvchilarning eng malakali sherigi sifatida aniq ajralib turadi.

**Tahlil va natijalar.** Asosiy vazifadan oldin darsning kirish qismida bajariladigan harakatlar va qarorlarga kelsak (ya'ni, o'qituvchilar ma'lum bir dars yoki kursni o'qitish uchun sinfga kirishdan oldin qabul qilishlari mumkin bo'lgan qarorlar), o'qituvchilar materialni tanlash va sinf faoliyatining yo'nalishini aniqlashda hal qiluvchi rol o'ynashi mumkin. O'qituvchi sinfda talaba qaysi vazifa va mashqlarni bajarishlari, qaysi materialni qamrab olishni va o'qituvchi o'z sinfida qaysi ma'lumotni taqdim qilishni hal qiladi. Bundan tashqari, aksariyat hollarda o'qituvchilar sinf faoliyati vaqt jadvalini nazorat qiladilar: ular dars rejasidagi ma'lum bir vazifani bajarishga qancha vaqt sarflanishini, butun sinf muhokamasi qancha davom etishini va qancha vaqt ajratilishini hal qilishadi. Brinning fikriga ko'ra aynan o'qituvchilar ma'noga va shaklga e'tibor qay darajada muvozanatli bo'lishini va qaysi shakllar ta'kidlanishi, amalda qo'llanilishi yoki aniq yoritilishini hal qilishadi. Boshqacha qilib aytganda, agar ular vazifaga asoslangan o'quv rejasini bilan ishlayotgan bo'lsalar ham, o'z sinflarida keyingi kun uchun dars rejasini o'zlari ishlab chiqadilar [1]. Shu munosabat bilan Long vazifaga asoslangan yondashuvda tarkibni tanlaydigan va haqiqiy dars faoliyatining

yo'nalishini aniqlaydigan o'qituvchilar, birinchi navbatda, o'quvchilarning tilni o'rganish ehtiyojlarini tahlil qilish kerakligini ta'kidlaydi [8].

O'qituvchi faol bo'lgan keyingi bosqich-bu vazifa bajariladigan bosqich. Vazifa ish rejasini sifatida (Breen, 1989) endi harakatdagi vazifa va o'zaro ta'sirdagi vazifaga aylanadi. Van den Branden bu kabi vazifalar o'rganishni aniqlamasligini ta'kidlaydi [16]. Vazifaga asoslangan ish natijasida kelib chiqadigan til o'rganishni (a) talabalar vazifalar bilan ishlash paytida shug'ullanadigan aqliy faoliyatning intensivligi va sifati (ular o'qish, yozish, gapirish, tinglash va ular qabul qilishi kerak bo'lgan ma'lumotlar va ulardan ishlab chiqish talab etiladigan haqiqiy harakatlari) va (b) tengdoshlari va o'qituvchilari bilan muloqotga kirishish ular bilan olib boriladigan og'zaki o'zaro ta'sirlar aniqlaydi. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda o'qituvchilar kamida uchta muhim vazifani bajarishlari kerak: O'qituvchi vazifaga asoslangan til o'qitishda asosiy va muhim muloqotga kirishsa bo'ladigan hamkor sifatida qolmoqda, ya'ni u motivator (masalan, til o'rganuvchilarni qo'shma loyihalar qilishga undaydi), tashkilotchi (talabalar nima qilishlari kerakligini bilishlariga ishonch hosil qilish va vazifalarni bajarilishi bilan bog'liq bo'lgan jihatlarini tashkil qilish) va suhbatdosh sherik va qo'llab-quvvatlovchi, turli xil talabalarning til o'rganish ehtiyojlarini turli yo'llar bilan qondira oladigan yanada malakali, bilimdon suhbatdosh sifatida [16].

Albatta, bu yerda yuqorida tilga olingan 7 ta "C" bilan ko'plab bog'liqliklar mavjud. Dörnyei ta'kidlaganidek, talabalarning motivatsiyasini oshirish, bir tomondan, ular uchun qiziqarli, foydali va dolzarb bo'lgan topshiriqlarni kiritish, ikkinchi tomondan esa, ular uchun murakkab, ammo bajarilishi mumkin bo'lgan vazifalarni berish bilan bog'liqdir [3]. Albatta, o'qituvchilar bu fikrni amaliyotga tatbiq etishning juda ko'p usullariga ega. Bular qatoriga darsning maqsadlarini ta'kidlash, o'quvchilar o'rganayotgan narsalarning haqiqiy hayotdagi foydasini ko'rsatish, qiziqarli savol berish yoki o'quvchilar tomonidan ilgari surilgan mavzuni davom ettirish kabi harakatlar kiradi. Ta'lim bu — o'qituvchi o'quvchi o'rniga bajara olmaydigan, balki o'quvchining o'zi faol ravishda energiya sarflashi kerak bo'lgan jarayon ekanligini hisobga olgan holda, o'qituvchilarning barcha o'quvchilarni rag'batlantirish va faollashtirishdagi roli nihoyatda muhimdir. Guilloteaux va Dörnyei tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda, ingliz tili ikkinchi til sifatida o'qitiladigan 40 ta sinf va 1300 dan ortiq o'quvchi ishtirok etgan holda, o'quvchilar motivatsiyasi o'qituvchilarning motivatsion amaliyotlari bilan bog'liqligi va shu bilan birga o'quvchilarning yutuqlari bilan ham korrelyatsiyaga ega ekanligi empirik tarzda tasdiqlandi [15]. Shu munosabat bilan, Samuda o'qituvchining topshiriqni kiritishini o'quvchilar ishtiroq bilan o'rganishga tayyor bo'lgan pedagogik makonning ochilishi sifatida ko'radi va bu makonda ular o'qituvchi bilan birgalikda rivojlanayotgan o'quv faoliyatiga shakl berishda ishtirok etishlari mumkin [12].

Bu, shuningdek, o'qituvchidan ancha katta tashkiliy harakatlarni talab qiladi — masalan, topshiriqlarni aniq tushuntirish, o'quvchilarni guruhlariga bo'lish, umumiy sinf muhokamalari vaqtida navbatni tashkil etish, sinfda sodir bo'layotgan jarayonni nazorat ostida ushlab turish, bularning barchasi faqat topshiriqqa asoslangan darsning kirish bosqichi bilan cheklanmay, balki darsning boshidan oxirigacha o'qituvchining e'tiborida bo'lishi kerak [2]. Tashkilotchi sifatidagi o'qituvchi, o'quvchilar ishtirok etadigan faoliyatlar ketma-ketligi mantiqiy, izchil va shunday tarzda tuzilganligiga ishonch hosil qilishi kerakki, bunda o'quvchilar doimo bajarilishi mumkin bo'lgan, ammo ularni sinovdan o'tkazuvchi vazifalar bilan shug'ullanadilar.

Topshiriq bajarish bosqichida pedagogik yo'nalishdagi adabiyotlarda eng ko'p e'tibor qaratilgan 'qituvchining uchinchi asosiy roli bu o'zaro muloqotdagi hamkor va qo'llab-quvvatlovchidir. Bu rol odatda o'qituvchining vazifaga

asoslangan o'qitish jarayonidagi til o'rganish salohiyatini oshirish uchun muloqotning miqdori va sifati darajasini ko'tarish orqali amalga oshiradigan bir qator harakatlari bilan bog'lanadi. Masalan:

1	o'qituvchi, talabalar topshiriq talablarini bajarishga harakat qilayotgan paytda, ma'no bo'yicha muzokara jarayonida faol ishtirok etishi kerak
2	o'qituvchi, o'quvchilardan javob olish maqsadida turli xil savollar, ishoralar va rag'batlantiruvchi signallardan foydalanishi lozim
3	o'qituvchi, o'quvchilarning yozma va og'zaki javoblariga fikr-mulohaza (feedback) berishi kerak. Fikr-mulohaza turli shakllarda bo'lishi mumkin: aniq tuzatishlar, qayta ifodalash (recasts), tasdiqlash yoki aniqlashtirish so'rovlari, metatilinga oid izohlar, kengaytirishlar va batafsil tushuntirishlar
4	o'qituvchi talabalar bajarayotgan ma'noga yo'naltirilgan ishda shaklga e'tiborni qaratishi kerak
5	o'qituvchi, o'quvchilarga yetarli hajmdagi til materiali (input) taqdim etishi hamda topshiriqni bajarish yoki ma'lum strategiyani qo'llashni namoyish etishi yoki mashq qildirishi lozim

Devlieger va Goossens ta'kidlaganidek, o'qituvchilar faqat kognitiv (aql-idrok bilan bog'liq) yo'nalishda o'zaro muloqot orqali qo'llab-quvvatlash bilan cheklanmasdan, balki o'quvchilarga ijtimoiy-emotsional yordam ham ko'rsatishlari kerak. Masalan, o'qituvchilar o'quvchilar o'z fikrlarini erkin ifoda etishdan yoki nutqiy ko'nikmalarini mashq qilishdan ortiqcha xavotir yoki uyalish hissini sezmaydigan xavfsiz muhit yaratishga intilishlari lozim [2]. Shuningdek, ular barcha o'quvchilarga hurmat bilan munosabatda bo'lishlari, ularning motivatsiyasini saqlab turishlari, ijobiy fikr-mulohazalar orqali o'quvchilarning ruhiy holati va o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishlari, hamda topshiriq qiyin bo'lsa ham, ularni davom etishga undashlari zarur.

Topshiriqlar bajarilgandan so'ng, o'qituvchilar post-topshiriq (yakuniy) bosqichida o'quvchilarning faoliyatini tahlil qilishlari mumkin. Bu bosqichda o'qituvchi:

o'quvchilarning ishlash jarayonini tahlil qilishi, grammatik shakl (form)ga e'tibor qaratishi,

o'quvchilar foydalangan strategiyalarni muhokama qilishi,

topshiriq bajarishdan olingan asosiy saboqlarni umumlashtirishi,

o'quvchilar qiynalgan savollar yoki masalalarni birgalikda tahlil qilishi mumkin.

Shuningdek, post-topshiriq bosqichida o'qituvchidan o'quvchilarning topshiriq bajarishdagi muvaffaqiyati va til rivojlanish darajasini baholashi ham kutiladi.

Buni o'qituvchilar, albatta, standartlashtirilgan yoki rasmiy testlardan, yoki o'quv dasturiga kiritilgan testlardan foydalanish orqali amalga oshirishlari mumkin. Biroq, o'qituvchilar (vazifaga asoslangan) testlarni o'zlari tuzishlari yoki dars jarayonida o'quvchilarning topshiriq bajarish faoliyatini doimiy kuzatish va baholash natijalaridan baholash hamda fikr-mulohaza (feedback) berishning asosiy manbai sifatida foydalanishlari ham mumkin [8].

Vazifaga asoslangan yondashuv nuqtayi nazaridan, o'qituvchilar baholashda mazmunli vazifalardan foydalanishlari, asosan, o'quvchilar vazifani belgilangan mezonlarga muvofiq bajargan-bajarmaganligini aniqlashga e'tibor qaratishlari kerak (ya'ni, muayyan grammatik shaklning to'g'ri ishlatilishiga haddan tashqari urg'u bermaslik kerak). Shuningdek, baholash rivojlantiruvchi (formative) maqsadlarda qo'llanilib, o'quvchiga samarali fikr-mulohaza berishga xizmat qilishi lozim.

Shunday qilib, vazifaga asoslangan yondashuvda baholash asosan quyidagilarga xizmat qiladi:

o'quvchilarning individual yoki guruh ehtiyojlariga mos tarzda o'zaro muloqotdagi yordamni (interactional support) moslashtirish va takomillashtirish,

hamda kurs rejasini yoki o'quv dasturining keyingi bosqichlarini loyihalash va qayta ko'rib chiqish [11].

**Xulosa.** Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, vazifaga asoslangan til o'qitishda o'qituvchining roli nihoyatda muhimdir. Aynan o'qituvchilar TBLTni "jonlantiradi" — ya'ni uni amalda samarali qiladi. Ular dars faoliyatini rejalashtirish va loyihalashda hal qiluvchi rol o'ynaydilar, shuningdek, bu faoliyatni o'quv dasturiga mos tarzda tashkil etadilar. O'qituvchilar o'rganilayotgan tilda ma'lumotni taqdim etishda ham, o'quvchilardan tilni faol qo'llash va shaklga (form) e'tibor berishni talab qilish orqali xorijiy tilni o'rganish uchun eng yaxshi sharoit yaratishda muhim o'rin tutadilar. Vazifaga asoslangan muloqotda ishtirok etish orqali o'qituvchilar tilning to'g'ri qo'llanishini namoyish etishlari) hamda o'quvchilarni muloqot jarayonida qo'llab-quvvatlashlari mumkin. Shuningdek, o'qituvchi sinf faoliyatini samarali tashkil etish va o'quvchilarni motivatsiya qilish orqali har bir o'quvchining topshiriqqa faol yondashishi va undan haqiqiy o'rganish natijasini olishi ehtimolini oshiradi.

#### ADABIYOTLAR

1. Breen, M. The evaluation cycle for language learning tasks. In R. Johnson (Ed.), *The Second Language Curriculum*. Cambridge, UK: Cambridge University Press. 1989, pp. 187–206
2. Devlieger, M., & Goossens, G. An assessment tool for the evaluation of teacher practice in powerful task-based language environments. In K. Van den Branden, K. Van Gorp, & M. Verhelst (Eds.), *Tasks in action: Task-based language education from a classroom-based perspective*. Newcastle, UK: Cambridge Scholars. 2007, pp. 92–130
3. Dörnyei, Z. *The psychology of second language acquisition*. Oxford, UK: Oxford University Press. 2009.
4. Dumont, H., Istance, D., & Benavides, F. (Eds.) *The nature of learning. Using research to inspire practice*. Paris, France: OECD. 2010
5. Ellis, R., & Shintani, N. *Exploring language pedagogy through second language acquisition research*. New York, NY: Routledge. 2014
6. Hattie, J. *Visible learning for teachers: Maximizing impact on learning*. New York, NY: Routledge. 2012
7. Hattie, J., & Yates, G. *Visible learning and the science of how we learn*. New York, NY: Routledge. 2014
8. Long, M. *Second language acquisition and task-based language teaching*. Sussex, UK: Wiley- Blackwell. 2015
9. Mackey, A. *Conversational interaction in second language acquisition*. Oxford, UK: Oxford University Press. 2007
10. McKinsey & Company. *How the world's best-performing school systems come out on top*. London, UK: Author. 2010

11. Philp, J., Adams, R., & Iwashita, N. Peer interaction and second language learning. New York, NY: Routledge. 2014
12. Samuda, V. (2015). Tasks, design, and the architecture of pedagogical spaces. In M. Bygate (Ed.), *Domains and directions in the development of TBLT*. Amsterdam, The Netherlands: John Benjamins. 2015, pp. 271–301
13. Van den Branden, K., Bygate, M., & Norris, J. M. (Eds.). *Task-based language teaching: A reader*. Amsterdam, The Netherlands: John Benjamins. 2009
14. Grossman, P., Loeb, S., Cohen, J., & Wyckoff, J., Measure for measure: The relationship between measures of instructional practice in middle school English language arts and teachers' value-added scores. *American Journal of Education*, 2013, 119(3), 445–470.
15. Guilloteaux, M., & Dörnyei, Z. Motivating language learners: A classroom-oriented investigation of the effects of motivational strategies on student motivation. *TESOL Quarterly*, 2008, 42, 55–77.
16. Van den Branden, K. Mediating between predetermined order and complete chaos. The role of the teacher in task-based language education. *International Journal of Applied Linguistics*, 2009 b, 19(3), 264–285.